



ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE TAX SYSTEM

¹Tashmuradova
Buvsara Egamovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

ORCID: 0000-0002-2240-8897, G-mail: buvsara.egamovna@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq tizimi samaradorligini oshirish yo'llari va bu boradagi ayrim muammolar ustida to'xtalib o'tilgan. Hukumat tomonidan bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinib, uning ijobiy tomonlari va ayrim munozarali jihatlari ustida to'xtalib o'tilgan.

Eng. - The article discusses ways to improve the efficiency of the tax system in the context of digitalizing the economy and highlights some related challenges. The measures undertaken by the government in this regard are analyzed, focusing on their positive aspects as well as certain debatable issues.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ soliq tizimi, shaxsiy kabinet, raqamli texnologiyalar, soliq nazorati, soliq huquqi, soliq qonunchiligi, soliq huquqbuzarliklari.

❖ taxes, tax system, tax law, tax reports, digital technologies, tax evasion, tax offenses, tax legislation.

Kirish.

Hayotimizning barcha sohalariga kirib bo'lgan raqamli texnologiyalar iqtisodiyot sohasida ham bir qator qulayliklar yaratilishiga sabab bo'ldi. Tahlillar ko'rsatadiki, raqamlashtirish natijalari soliq tushumlarini sezilarli darajada oshirdi. 2024-yilda budjetga 199,1 trln. so'm soliq tushumlari ta'minlandi, bu 2023-yilga nisbatan yigirma foiz (+33,1 trln. so'm) ga oshdi. Tuman va shaharlar budjetiga tushumlar yigirma to'rt foizga oshdi. 2025-yilda 244 trln. so'm soliq tushumlarini ta'minlash vazifalari belgilandi [1].

So'nggi davrda soliq tizimi sohasini raqamlashtirish borasida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi:

❖ ma'lumotlarni qayta ishlash markazi va serverlar yangilandi, zamonaviy telekommunikatsiya uskunalari o'rnatildi;

❖ soliq organlarining aloqa infratuzilmasi va axborot xavfsizligi tizimlari modernizatsiya qilindi;

❖ soliq ma'murchiligi uchun yagona raqamli platforma yaratildi;

❖ katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy qilindi;

❖ soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati kengaytirildi.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bu borada bir qator muammolar mavjud. Bularga dasturlar doimo ham mukammal emasligi, ayrim hollarda nosozliklar yuzaga kelayotgani,

malakali mutaxassislar yetishmasligi; qayta tayyorlash tizimining sustligi; dasturga kiritilayotgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi, real iqtisodiy vaziyatni aks ettirmasligi, xakerlar hujumi tufayli tadbirkorlarning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani va boshqalar kiradi. Shu tufayli bu borada qilinadigan ishlar bisyordir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Soliq tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali soliqlarni undirish jarayonini takomillashtirishga oid adabiyotlarni o'rganishda e'tibor beradigan bo'lsak, turli mualliflar bu borada o'z fikrlarini bayon etganlar. A. Qobulov soliq tizimini avtomatlashtirishning tarkibiy tuzilmasi qanday bo'lishi lozimligi, soliq tizimida axborotlashtirish va avtomatlashtirish jarayonining shakllanishi, shuningdek soliq xizmati organlarining budjetga soliq to'lovlari bo'yicha hisoblashishlar bilan bog'liq jarayonlar hamda soliq tekshiruvlari bo'yicha reja-grafiklar ishlashi o'rganilgan [2].

Bu borada R. Abduxalimova va A. Sharafutdinovlar: "soliqqa tortishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi imkoniyatlaridan foydalangan holda soliq organlari faoliyatini tashkiliy boshqarish shakli bo'lib, undan foydalanish jarayonida qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtidaligi va asosligi oshadi, shoshilinch vazifalar ro'yxatini keltirish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning murakkabligini kamaytirish, axborot oqimlarini tartibga solish, iqtisodiy va matematik usullarni qo'llash orqali soliq ma'muriyatchiligi jarayonini optimallashtirish mumkin bo'ladi [3]".

S.P. Kosarin, Yu.A. Lebedeva va I.V. Milkinalar raqamlashtirilgan soliq tizimini atroflicha o'rganib, uning afzalliklari va mavjud cheklovlarini tahlil qilganlar. Mualliflar tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar soliq ma'murchiligini optimallashtirish, shaffoflikni

oshirish hamda soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, ular raqamlashtirish jarayonida texnik nosozliklar, ma'lumotlarni himoya qilish muammolari va kadrlar salohiyatining yetarli emasligi kabi qator kamchiliklar ham mavjud ekanini ko'rsatib o'tadilar [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasida transfert narxlarini nazorat qilishda bozor narxlarini aniqlash usullarini o'rganishda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimini raqamlashtirish borasidagi tadbirlarni tahlil qilishda, avvalo, bu yo'nalishda samarali qo'llanilayotgan dasturiy mahsulotlarning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

1. "Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-5)";
2. "Jismoniy shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlari";
3. "Soliq to'lovchilarning tasarrufidagi yer fondi" dasturiy mahsuloti;
4. "Bozorlar va savdo majmualarida xizmat ko'rsatganlik uchun bir martalik yig'imlar, ijara haqi va yig'imlarni hisobga olish hamda nazorat qilish" dasturiy mahsuloti;
5. "Kameral nazorat" dasturi va boshqalar.

Shu bilan birgalikda, soliqqa tortish bilan bog'liq bir qator axborot tizimlari va elektron dasturlar ham mavjud bo'lib, ular soliq ma'murchiligini tashkil etishda samarali foydalanib kelinmoqda. Ulardan asosiylari quyidagilardir:


- ❖ "Yuridik va jismoniy shaxslarning qarzdorliklarini hisobga olish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- ❖ "Bank-DSQ" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- ❖ "Soliq tekshiruvlarini hisobga olish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

- ❖ “Ma’muriy amaliyot hisobi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- ❖ “Xodimlarni hisobga olish bazasi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining yagona integratsiyalashgan axborot resurs bazasi;
- ❖ Elektron davlat xizmatlari;
- ❖ “Soliqqa tortish bo‘yicha normativ-huquqiy xizmatlar” ma’lumotlar bazasi;
- ❖ “Soliq nizolarini ko‘rib chiqish” xizmati ma’lumotlar bazasi;
- ❖ “Soliq organlarining rasmiy tushuntirishlari”;

- ❖ “Jismoniy shaxslar soliqlari bo‘yicha maslahatchi”;

- ❖ “Ko‘p so‘raladigan savollar” xizmati;
- ❖ “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlar jadvalidan ko‘chirma berish” xizmati.

Shuningdek, boshqa xizmatlarni ham bilish va ulardan foydalanish har bir tadbirkor va fuqaro uchun muhimdir. “Jismoniy shaxslar budjeti bilan hisob-kitoblar” hamda “Soliqdan qarzдорlik mavjud emasligi to‘g‘risida elektron sertifikatlar berish” elektron xizmati istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.



1-rasm. Soliq ma'murchiligi jarayonlarida axborot-tahlil va raqamli boshqaruv tizimlari tuzilmasi [5]

“Kontragent axboroti” elektron xizmati soliq to‘lovchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, jozibador ishbiarmonlik muhitini shakllantirishga mo‘ljallangan. Bu kontragentlarga to‘langan QQS bo‘yicha hisobga olishni amalga oshirishda muhimdir.

“Elektron hisoblagich” xizmati jismoniy shaxs-soliq to‘lovchiga jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, qat‘iy belgilangan soliq, sug‘urta mukofoti, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i

va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil hisoblash imkonini beradi.

“Shaxsiy STIRni topish” xizmati foydalanuvchiga soliq to‘lovchisining identifikatsiya raqamini (STIR) topish imkonini beradi.

“Jismoniy shaxslarning elektron soliq deklaratsiyalarini yuborish” xizmati soliq to‘lovchilar ishini ancha yengillashtirdi, ko‘plab muammolarning, jumladan, korrupsiya va

soliqdan qochish yo'llarining kamayishiga imkon yaratdi.

"SMS so'rov orqali ma'lumot" soliq bo'yicha elektron xizmatlar ham ko'plab jarayonlarni optimallashtirmoqda.

"Soliq imtiyozlari ma'lumotlari" elektron xizmati yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari, ularning amal qilish muddatlari va shu imtiyoz asosida beriladigan me'yoriy hujjatlar haqida batafsil ma'lumot olish imkonini berdi.

"Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish" veb-sayti www.soliq.uz orqali STIR tadbirkorlik subyektlariga bir vaqtning o'zida soliq va

statistika organlarida ro'yxatdan o'tgan holda, soliq organlariga tashrif buyurmasdan beriladi.

"Fuqarolarning elektron murojaatlari" xizmati esa soliq organlari uchun ham, ularga murojaat qiladiganlar uchun ham eng ko'p vaqt talab qiladigan jarayonlarni yengillashtirdi.

Soliq tizimida hozirgi paytda SIAIJ-5, 1-N, TMA, Bank-DSQ, Soliq qarzi, Imtiyozlar hisob, Korxonalarni tugatish, WEFOINS, Kameral nazorat, Tahlila tahlil, JSh hisobi, Soliq deklaratsiyalari, EHF statistika, QQS qaytarish, E-Ijara, Dashboard, QQS ofis, E-aktiv kabi raqamli texnologiya tizimlari samarali ishlaymoqda.

1-jadval

Davlat soliq qo'mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari [6]

Bo'lim	Tizim	Funksiya
Axborot-tahliliy bo'lim	Axborot-tahliliy tizimlar	Hisobotlarni shakllantirish, asosiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish, tahlil va prognozlashtirish
Ma'lumotlarni saqlash bo'limi	Tahliliy segment	Ko'p o'lchovli ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish
	Transaksiyon segment	Bir-biriga bog'liq ma'lumotlarni qayd etish va saqlash
	ETL mexanizmi	Ma'lumotlarni chiqarish, o'zgartirish va yuklash
Tashqi aloqalar bo'limi	Tashqi axborot almashish tizimlari	Elektron xizmatlar orqali axborot almashish, tashqi ma'lumotlar bazalari va banklar bilan integratsiya
	Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti	Soliq to'lovchiga shaxsiy xizmatlarni ko'rsatish
Soliq ma'murchiligi bo'limi	Soliq ma'murchiligi axborot tizimlari	EXA, hisob-kitob, kirim/chiqim, penya hisoblash va undirish
	Soliq ma'murchiligi ma'lumotlar bazasi tizimlari	Shaxsiy kabinet, interfaol xizmatlar, monitoring va ro'yxatga olish
Ma'muriy-xo'jalik bo'limi	Ma'muriy-xo'jalik boshqaruv tizimlari	Asosiy vositalarni hisobga olish, xo'jalik faoliyatini boshqarish
Axborot xavfsizligi bo'limi	Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlari (AXT)	Avtorizatsiya, foydalanuvchi huquqlarini boshqarish, xavfsizlik holatini kuzatish
AT-ta'minot bo'limi	AT infratuzilma boshqaruv tizimlari	Dasturiy va apparat infratuzilmasini boshqarish, tarmoq xizmatlari, uzatish va saqlash

Hozirgi paytda soliqlarni yashirish oldini olish maqsadida majburiy raqamli markirovkalash tartibi joriy etildi. 2024-yilning 1-oktabr holatiga Markirovkalangan mahsulotlar milliy katalogiga 110 897 nomdagi mahsulotlar kiritildi:

- ❖ alkogol mahsulotlari — 13 031 ta;
- ❖ tamaki mahsulotlari — 11 401 ta;
- ❖ pivo mahsulotlari — 1 653 ta;
- ❖ maishiy texnika — 67 550 ta;
- ❖ dori vositalari va tibbiy buyumlar — 12 022 ta;

❖ suv va salqin ichimliklar — 5 240 ta.

Majburiy raqamli markirovkalash lozim bo'lgan mahsulotlar bo'yicha EHF solib oluvchi tomonidan ERI bilan bir kun ichida tasdiqlanishi yoki sababi ko'rsatilgan holda rad etilishi kerak. Aks holda bunday EHF tasdiqlanmagan hisoblanadi. Bunday mahsulotlar chakana savdosini amalga oshiruvchi subyektlar markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni ta'minlovchi maxsus qurilma — 2D-skanerlarni xarid qilishi lozim. Buning uchun imtiyoz taqdim etilgan, ammo amalda bu imtiyoz ahamiyatsiz ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Raqamli markirovkalash dori mahsulotlarini qalbakilashtirishning ham oldini oladi. Davlat tibbiy ta'minoti tizimini faol raqamlashtirish va davlat tibbiy sug'urtasini joriy etish sharoitida asosiy e'tibor dori vositalarining haqiqiyliги, samaradorligi va aholiga qulay narxda bo'lishiga qaratilgan.

2024-yil davomida dori vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish va muomalaga kiritish bilan bog'liq 600 dan ortiq fakt aniqlandi. Umumiy qiymati 28,1 mlrd. so'mdan ko'p bo'lgan raqamli markirovkasiz va ruxsat hujjatisiz 30 mingdan ortiq qadoqlar muomalaga chiqarilgan.

Dori vositalarini raqamli markirovkalash qonuniy farmatsevtika bozorini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro hamkorlik uchun ham yangi imkoniyatlar ochiladi. Xaridorlar sotib olayotgan dori vositalarining sifatiga ishonch hosil qilishi uchun "Soliq" mobil ilovasida markirovkaning haqiqiyligini tekshirish imkoniyati yaratildi. Soliq qo'mitasining axborot tizimlari "Asl belgisi" MChJ bilan muvaffaqiyatli integratsiya qilingan.

Ushbu yangiliklar tufayli 2025-yildan boshlab yetkazib beruvchilarga markirovkalangan tovarlarning axborot tizimlarida mavjud qoldiqlaridan ortiq miqdori uchun EHF rasmiylashtirish imkoniyati cheklanadi. Ammo bu cheklov NKM orqali realizatsiya qilishga taalluqli emas.

Elektron hisob-kitob tizimlari:

"Yakka tartibdagi tadbirkorlarning elektron hisobotlari" soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'ida elektron shakllarni to'ldirish orqali tuziladi.

"Jismoniy shaxslarning elektron soliq deklaratsiyalarini yuborish" elektron davlat xizmati ko'plab noaniqliklarning tubdan hal etilishiga yordam berdi. Bu nafaqat hujjatni internet orqali nazorat organlariga taqdim etish, balki uni to'g'ri shakllantirish imkonini ham beradi, chunki arifmetik xatoliklar avtomatik boshqaruv funksiyasi orqali bartaraf qilinadi. Har yili elektron deklaratsiyalar topshirayotgan soliq to'lovchilar soni oshib bormoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda raqamlashtirish tizimidagi uzilishlar tufayli muammolar yuzaga keladi. Nosozlik sababli solishtirma dalolatnoma bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar: soliq qarzdorligi paydo bo'lishi, mablag'larning yechib olinishi kuzatilgan. Bu soliq to'lovchilarda katta noroziliklar uyg'otgan. Mutaxassislar muammoni bartaraf etib, bir necha kunda yechib olingan mablag'larni qaytarib berishgan.

Ma'lumotlar bazasida yuz bergan xatolik sababli 30,1 ming soliq to'lovchidan asossiz ravishda jami 399,3 mlrd. so'm yechib olingan. Bu jarayonda G'aznachilik va tijorat banklari tizimida bir qancha operatsiyalar amalga oshirilgan.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyotning soliq tizimi samaradorligi va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib ayrim xulosalarga ega bo'ldik.

Soliq tizimini raqamlashtirish borasida zamonaviy texnologiyalar yanada rivojlanishi bu sohani yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bu borada quyidagi masalalar eng ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanishi lozim: soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni raqamli transformatsiya orqali yanada yaxshilash; KPI mezonlari asosida mahallabay va korxonabay ishlash tizimini

rivojlantirish; yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda soliq nazorati instrumentlarini takomillashtirish; davlat ulushi yuqori bo'lgan

korxonalarda xarajatlarni nazorat qilish va soliq monitoringini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Budjetnoma 2025-2027". https://api.mf.uz/media/2024-2026_compressed.pdf
2. Кабулов А. Автоматизация деятельности налоговых органов. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 4, may, 2012-yil.
3. Абхалимова Р.С., Шарафутдинов А.Г. Информационные технологии XXI века//Экономика и социум. № 2–5 (11)
4. Косарин С.П., Лебедева Ю.А., Милькина И.В. Модернизация информационной системы налоговых органов Российской Федерации//E-Management. 2019. № 1. С. 42–51.).
5. P.Christian, Tax strategy control: The case of transfer pricing tax risk management, Management Accounting Research, Volume 24, Issue 2, Pages 175- 194.
6. Tadqiqotlar natijasi va rasmiy manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.